

# Prezident: Musa Yerniyazov qahramon xalqning qahramon rahbari edi



Nukus shahrida O'zbekiston Qahramoni Musa Yerniyazovning vafoti munosabati bilan ta'ziya marosimi bo'lib o'tdi.

Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, marhumning oila a'zolariga, xalqimizga chuqur hamdardlik bildirdi.

Shavkat Mirziyoyev Musa Yerniyazov qariyb 50 yillik faoliyati davomida ulkan rahbarlik qobiliyati, insoniy fazilatlar bilan hurmat qozongani, Qoraqalpog'istonning iqtisodiy salohiyatini oshirish, shahar va ovullarni obod qilish, aholi turmushini yaxshilash uchun o'zini ayamay mehnat qilganini ta'kidladi.

- Qoraqalpoq zaminida, Orol halokati yuz bergan o'lkada yashab mehnat qilish - bu haqiqiy matonat. Musa Yerniyazov ana shunday qahramon xalqning qahramon rahbari edi. U 18 yil davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Raisi deb atalmish o'ta mas'uliyatli va sharaflil vazifada samarali faoliyat olib borgani buni yaqqol tasdiqlaydi, - dedi davlatimiz rahbari.



Musa Yerniyazov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining o'rinbosari sifatida mamlakatimizning barcha hududlarini rivojlantirish uchun muhim qonunlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga katta hissa qo'shgan yodga olindi.

- Alloh taolo Musa og'ani mana shunday muborak Qurbon hayiti va juma kunlarida o'z rahmatiga olganida ham bir xislat borligidan dalolat, deyish mumkin. Barchamiz uchun qadrli bu inson hayotda o'zidan yaxshi nom, yaxshi iz va xotiralar qoldirdi. «Yurt uchun fido bo'lish - o'lim emas, aslida qayta tug'ilish», deydi donolar. Musa Yerniyazovning nomi va yorqin xotirasi ham bugun qayta tug'ilmoqda, tarix sahifalariga abadiy muhrlanmoqda, - deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev.



Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi Qahramon Sariyev, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirining o'rinbosari, Oliy Majlis Senati a'zosi Sharap Usnatdinov, «Qoraqalpoq adabiyoti» gazetasi bosh muharriri, Oliy Majlis Senati a'zosi Guliston Annaqlicheva, Xorazm



viloyati hokimi Farhod Ermanov, O'zbekiston yoshlar ishlari agentligining Qoraqalpog'iston bo'limi rahbari, Oliy Majlis Senati a'zosi Abatbay Daniyarov Musa Yerniyazovning el-yurt manfaati yo'lidagi serqirra faoliyati, odamlarga yaxshiliklarini esga oldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasi vakillari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputatlari, Vazirlar Kengashi a'zolari va keng jamoatchilik marhum xotirasiga hurmat bajo keltirib, surati tagiga gullar qo'ydi.

Qur'on tilovat qilindi.

O'zbekiston Qahramoni, atoqli davlat va jamoat arbobi, samimiy va fidoyi inson Musa Tajetdinovich Yerniyazovning xotirasi xalqimiz qalbida doim saqlanib qoladi.











Manba